

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

# Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik  
jamiyatining gazetasi

2026-yil 24-sentabr № 18 (1580)  
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

## MEHNAT MUHOFAZASI MADANIYATI

Mehnat muhofazasi korxona barqarorligi, ishlab chiqarish unumdorligi va har bir xodimning uyiga sog'-salomat qaytishining garovidir.

2 ➤

## KORRUPSIYAGA O'RIN YO'Q!

Korrupsiyaga qarshi kurashishni avvalo o'zimizdan boshlaylik, shaxsiy manfaatimizni kombinat manfaatidan ustun qo'ymaylik!

3 ➤

## SHARTNOMA EMAS, ISHONCH MUHIM

Mijozni yo'qotib, boshqasini topish mumkin. Ammo ishonchni yo'qotsangiz, uni qayta tiklash uchun ba'zan bir umr ham kamlik qiladi.

4 ➤

1-OKTABR – O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI

## USTOZ VA MURABBIYLARGA EHTIROM – AZALIY QADRIYAT

**Hurmatli ustoz va murabbiylar!**

Sizlarni O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan chin qalbimizdan samimiy muborakbod etamiz!

Ustozlik inson qalbiga ilm-ma'rifat ziyosini olib kirish, yosh avlodga bilim va kasb-hunar sirlarini o'rgatish, ularni Vatanga sadoqatli, yuksak ma'naviyatli, bilimli va yetuk insonlar etib tarbiyalashdek sharafligi va mas'uliyatli kasbdir.

Sizlar o'zingizning boy bilim va tajribangiz, fidoyiligingiz va ibratli mehnatingiz bilan yosh avlod kamolotiga beqiyos hissa qo'shib kelmoqdasiz. Siz bergan saboqlar, nasihatlar, va ibratingiz shogirdlaringiz hayotida uzoq yillar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

O'zbekiston metallurgiya kombinati tizimida mehnat qilayotgan ustoz va murabbiylarning o'rni, ayniqsa, beqiyosdir. Sizlar yosh mutaxassislariga



nafaqat kasbiy bilim va amaliy tajribangizni, balki mehnatsevarlik, mas'uliyat, intizom, kasbga sadoqat va jamoaga hurmat kabi yuksak fazilatlarini ham o'rgatib kelmoqdasiz.

Bayramingiz muborak bo'lsin, aziz ustoz va murabbiylar!

**“O'zmetkombinat” AJ Boshqaruvi.**

Sizning mashaqqatli va sharafligi mehnatingiz tufayli bugungi yosh mutaxassislar o'z kasbining yetuk bilimdoni, zamonaviy ishlab chiqarishning malakali kadrlari sifatida shakllanmoqda. Bu esa korxonamiz taraqqiyoti, barqaror rivoji va kelajagi uchun munosib kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Qadrli ustozlar va murabbiylar!**

Sizlarga avvalo mustahkam sog'lik, uzoq umr, oilaviy xotirjamlik, fayzu baraka va qalb osoyishtaligini tilaymiz. Sharafligi va mashaqqatli faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar, yangi yutuqlar va ezgu ishlaringizda doimo omad hamroh bo'lsin! Shogirdlaringiz zafarlarini ko'rib, faxr-iftixor tuyg'usida yashash nasib etsin!

## BAYRAMINGIZ MUBORAK BO'LSIN!

Ma'rifat bog'ini aylabon bo'ston,  
Hur zamon bo'ldingiz tillarda doston.  
Quyosh qalb sohibi – Siz komil inson –  
Ustoz, ayomingiz muborak bo'lsin!

Siz erkli avlodning toshqin sururi,  
Kasbu hunar koni, tilsimlar siri,  
Ozod mamlakatning faxri, g'ururi –  
Ustoz, bayramingiz muborak bo'lsin!

Onaday tabarruk, otaday ulug',  
Shirin kalomingiz oyatday qutlug'.  
Mehringiz ziyosi oftobdan yorug' –  
Ustoz, ayomingiz muborak bo'lsin!

Fazlu mahoratda samosiz zilol,  
Yulduzlar shogirdi – o'zingiz hilol.  
Shoir o'quvchingiz tilaydi iqbol –  
Ustoz, bayramingiz muborak bo'lsin!

**Abdusalom ABDULLA,**  
mehnat faxriysi.

Inson umrining qadri yillar bilan emas, el-yurt uchun qilgan ezgu ishlari, qoldirgan ibratini va tarbiyalagan avlodlari bilan o'lchanadi. Shu ma'noda, korxona va tashkilotlar hayotida o'zining ko'p yillik mehnati, boy tajribasi va fidoyiligi bilan munosib iz qoldirgan mehnat faxriylarining o'rni beqiyosdir.

## FAXRIYLAR E'ZOZ VA EHTIROMDA

O'qituvchi va murabbiylar kuni hamda Xalqaro qariyalar kuni arafasida bu haqiqat yanada teranroq anglanadi. Zero, ustozlik faqat sinfxona yoki auditoriya bilan cheklanmaydi. Korxonada kasb sirlarini yoshlarga o'rgatgan, ularni halol mehnatga, mas'uliyat va sadoqatga chorlagan har bir inson ustoz va murabbiydir.

Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari ana shunday fidoyi insonlar safida. Ular yillar davomida sanoat rivojiga o'z hissasini qo'shib, bugungi yosh avlodga boy mehnat tajribasini meros qilib qoldirmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashining asosiy vazifalaridan biri ham faxriylarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, munosib turmush darajasini ta'minlashdan iborat.

Bekobod shahridagi Kengash hududiy filiali bu borada salmoqli ishlarni olib bormoqda. Bugungi kunda filial uch ming nafarga yaqin a'zoni birlashtirgan.

Faxriylarning mazmunli hordiq chiqarishi, salomatligini tiklashi, o'zaro muloqot qilib, faol hayot tarzini davom ettirishi uchun turli tadbirlar tashkil etilmoqda.

Jumladan, joriy yil 9-sentabr kuni O'rta Chirchiq tumanida Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi tashabbusi bilan baliqchilik musobaqasi o'tkazildi. Unda kombinatimiz jamoasi munosib ishtirok etib, ikkinchi o'rinni egalladi. Mehnat faxriysi Shavkat Xoliqberdiyev musobaqada eng katta – 5 kilogramm 900 grammligi baliq tutdi. Yana bir vakilimiz Abdug'ani Yo'ldoshev hammadan ko'p, jami 12 kilogrammdan ortiq baliq ovlab, birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

Yaqinda Bekobod tumanidagi “Nayman” qishlog'ida ham kombinatimizning 40 nafarga yaqin mehnat faxriysi ishtirokida baliqchilik musobaqasi tashkil etildi. Sirdaryoda o'tkazilgan baliqchilar bahsida Mustafa Xalibayev birinchi, Abdug'ani Yo'ldoshev ikkinchi, Sergey Aripov esa uchinchi o'rinni egalladi.

**(Davomi 2-sahifada).**

## FAXRIYLAR E'ZOZ VA EHTIROMDA

(Davomi. Boshlanishi  
1-sahifada).

Faxriylar hayotida sport ham muhim o'rin tutadi. Ular o'rtasida katta tennis, stol tennis, shaxmat va shashka bo'yicha musobaqalar tashkil etilib, g'olib va sovrindorlar diplom hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanmoqda.

Bu tadbirlarning ahamiyati faqat musobaqa yoki hordiq bilan cheklanmaydi. Ular turli avlod vakillarini birlashtirib, faxriylarning hayotiy tajribasi va yoshlarning intilishlari o'rtasida ma'naviy ko'priklar vazifasini o'taydi.

Faxriylarga g'amxo'rlik qilish esa Kengash faoliyatining yana bir muhim yo'nalishidir. Bemor va kam ta'minlangan faxriylarga yordam ko'rsatish, ularni shifoxonalarda davolash, sanatoriylarga bepul yo'llanmalar ajratish ishlari rejali ravishda amalga oshirilmoqda.

Joriy yilning shu davriga qadar 84 nafar faxriyga respublika sanatoriylariga bepul yo'llanma berildi. 18 nafar faxriy shifoxonalarda bepul davolanib, ular uchun zarur dori-darmonlar ham olib berildi.

E'tibor va ehtiromning yana bir yorqin namunasi - faxriylarning qutlug' sanalari munosabati bilan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikdir. 70, 75, 80 va undan katta yoshdagi yubileylerini nishonlayotgan faxriylarga "Tashakkurnoma", sovg'alar topshirilmoqda.



Xalqimizda "Qarisi bor uyning parisi bor", degan hikmat bor. Chindan ham, katta hayotiy tajribaga ega insonlar bor joyda baraka, fayz va ibrat bo'ladi. Bugun kombinatimizda mehnat qilayotgan yoshlar uchun faxriylarimizning hayot yo'li, kasbga sadoqati va mehnatsevarligi katta maktab vazifasini o'taydi.

Ustoz va murabbiylar kunida biz ta'lim va tarbiya bergan ustozlarimizni qanchalik e'zozlasak, Xalqaro qariyalar kunida mehnat faxriylarini ham shunchalik qadrlashimiz bejiz emas. Chunki bu ikki tushuncha zahirida bitta ulug' qadriyat - avloddan avlodga o'tadigan tajriba, mehr va insonparvarlik mujassam.

Kechagi avlod mehnati bugungi taraqqiyot poydevori. Bugungi yoshlarning bilimi va g'ayrati esa



ertangi kunning tayanchidir. Ana shu ikki avlod o'rtasidagi uzviylikni asrash, ustozlar va faxriylarning qadriini yuksak tutish barchamizning ezgu burchimizdir.

**Ilhom QURBONOV,**  
O'zbekiston Respublikasi  
Konchilik va metallurgiya sanoati  
faxriylari Kengashining Bekobod  
filiali raisi.

## MEHNAT MUHOFAZASI MADANIYATI – KORXONA BARQARORLIGINING BOSH OMILI

Mamlakatimizda sanoat va ishlab chiqarish shiddat bilan rivojlanib, yangi zamonaviy quvvatlar ishga tushirilmoqda. Biroq, har qanday iqtisodiy samaradorlikning zahirida eng oliy qadriyat - inson hayoti, uning sog'lig'i va xavfsiz mehnat sharoiti turishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 819-sonli qarori bilan tasdiqlangan yangi nizomlar talablari ham aynan baxtsiz hodisalarning oldini olish va tizimli xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan. Davlat mehnat inspeksiyasining o'rganishlari shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarishdagi ko'plab noxush holatlarning tub ildizi nafaqat texnik nosozliklarga, balki korxonalarda mehnat muhofazasi madaniyati yetarli darajada shakllanmaganiga borib taqaladi.

### Xalqaro talablar va milliy qonunchilik asosi

Mehnat muhofazasi madaniyatini yuksaltirish - bu shunchaki tavsiya emas, balki xalqaro va milliy normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan qat'iy majburiyatdir.

O'zbekistonda ratifikatsiya qilingan Xalqaro mehnat tashkilotining 155- va 187-sonli Konvensiyalari korxonalarining barcha bosqichlarida xavfsiz mehnat muhitini faol qo'llab-quvvatlashni talab qiladi.

Milliy qonunchiligimizda ushbu tamoyillar yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida o'z aksini topgan: 358-moddaga muvofiq, har bir xodim sog'lig'i va xavfsizlik talablariga javob beradigan ish joyiga ega bo'lish huquqiga ega. 359-moddaga ko'ra, ish beruvchi ish joylarida mehnatni muhofaza qilishni



boshqarish tizimini (MMBT) yo'lga qo'yishi va xodimlarning xavfsizlik madaniyatini oshirish choralari ko'rish shart.

### Mehnat muhofazasi madaniyatining amaliy ustunlari

Inspektorlik faoliyatim va tizimli kamchiliklar tahlilidan kelib chiqib, korxonalarda xavfsizlik madaniyatini yuksaltirishning fundamental talablarini belgilab o'tishni lozim topdim:

Rahbariyatning shaxsiy namunasi (Boshqaruv mezon). Mehnat muhofazasi madaniyati yuqori bo'g'indan boshlanadi. Agar bo'linma boshlig'i yoki smena ustasi talablarga befarq bo'lsa, bu salbiy muhit ishchilarga ham o'tadi. Ish o'rinlarini tizimli tashkil etish, kundalik yo'riqnomalarni sifatli o'tish, jurnallarni yuritish, mehnat gigiyenasi (harorat, yoritilganlik, shamollatish) va shaxsiy himoya vositalaridan to'liq foydalanish rahbariyatning doimiy nazoratida bo'lishi shart.

Texnologik intizom va uskunalarning xavfsizligi

(Texnik mezon). Barcha mashina va mexanizmlar davlat standartlariga javob berishi lozim. Harakatlanuvchi qismlar, issiq yuzalar va xavfli hududlar ishonchli to'siqlar bilan jihozlanishi, texnik ko'rikdan o'z vaqtida o'tkazilishi shart. Texnik pasporti va muvofiqlik sertifikatini bo'lmagan moslamalardan foydalanish qonun taqiqlanadi.

Kasbiy tayyorgarlik va kompetensiya (Tashkiliy mezon). Tegishli ma'lumoti, maxsus o'quv kursi diplomi va bilimlarni tekshirish bayonnomasi bo'lmagan xodimlarni xavflilik darajasi yuqori ishlarga (elektr qurilmalari, balandlikdagi ishlar va h.k.) safarbar etishga aslo yo'l qo'yilmaydi. Har bir ishchi o'z yo'nalishi bo'yicha tegishli ruxsatnoma va xavfsizlik guruhiga ega bo'lishi shart.

Jamoaviy sergaklik (Inson omili). Xodimlarda nafaqat o'zi, balki hamkasblari xavfsizligi uchun ham mas'uliyat hissi bo'lishi kerak. Har bir ishchi hayotiga tahdid mavjud bo'lgan vaziyatda ishni to'xtatish va xavf bartaraf etilgunga qadar uni bajarishni rad etish huquqiga ega bo'lishi va bu madaniyat korxonada rag'batlantirilishi lozim.

Mehnat muhofazasi bu shunchaki tekshiruv yoki jarimadan qutilib qolish emas. Bu korxona barqarorligi, ishlab chiqarish unumdorligi va eng muhimi, har bir xodimning uyiga sog'salomat qaytishining garovidir. Xavfsizlik madaniyatini yuksaltirish davrning kechiktirib bo'lmaz talabidir.

**O'ktam O'SAROV,**  
Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha davlat  
texnik inspektori.

## HALOLLIK BOR JOYDA KORRUPSIYAGA O'RIN YO'Q!

## KOMBINAT MANFAATI SHAXSIY MANFAATDAN USTUN

Kombinatimiz hayotida shunday qadriyatlar borki, ularni na hisob-kitob bilan o'lchab, na biror hujjat bilan to'liq belgilab bo'ladi. Ana shunday qadriyatlardan biri – ishonch.

Xodim rahbariga, rahbar jamoasiga, hamkasb hamkasbiga, eng muhimi, jamoa o'z korxonasiga ishonsa, bunday muhitda samarali mehnat, tashabbus va taraqqiyot uchun mustahkam zamin yaratiladi. Ishonch esa, avvalo, halollik va adolatdan boshlanadi. Buning uchun har bir xodim o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondoshishi, qonun va ichki tartib-qoidalarga rioya qilishi, korxona manfaatini shaxsiy manfaatidan ustun qo'yishi zarur.

Aynan shu tamoyillar korrupsiyaning oldini olishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, korrupsiyaviy holatlar nafaqat qonunbuzilishga, balki jamoadagi ishonch, adolat va sog'lom mehnat muhitiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashishni faqat pora olish yoki berish holatlariga qarshi chora sifatida emas, balki halollik, shaffoflik va xolislikni kundalik mehnatimizda qaror toptirish vazifasi sifatida qabul qilishimiz kerak.

“O'zmetkombinat” AJdek yirik korxonada bu masalaning ahamiyati yanada yuqori. Bu yerda har bir qaror, har bir shartnoma, har bir xarid va boshqaruvga oid harakat korxona faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun xizmat vazifalarini bajarishda korxona manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish har bir xodimning

muhim tamoyili bo'lishi lozim.

Korrupsiyaviy xavflarning oldini olishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik alohida o'rin tutadi. Manfaatlar to'qnashuvi xodimning shaxsiy manfaatlari uning xizmat vazifalarini xolis bajarishiga ta'sir qilishi yoki bunday ta'sir ehtimoli mavjud bo'lgan vaziyatlarda yuzaga kelishi mumkin.

Bunday holatni yashirish emas, o'z vaqtida aniqlash va belgilangan tartibda ma'lum qilish “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi qonun bilan belgilangan. Chunki manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida bartaraf etish korxona manfaatlarini himoya qiladi.

Ayniqsa, xaridlar, shartnomalar tuzish, moddiy boyliklarni tasarruf etish, kadrlar masalasi va boshqa mas'uliyatli jarayonlarda shaxsiy manfaatlarning xizmat qarorlariga ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'ymaslik zarur.

Ba'zan “Tanishimga yordam beray”, “Bir safar hech kim bilmaydi” degan xayollar, murosalar oddiy holatdek tuyulishi mumkin. Ammo aynan shunday yondashuvlar keyinchalik jiddiy muammolarga olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun har qanday vaziyatda belgilangan qoida va mezonlarga amal qilish juda muhim.

Korrupsiyaga qarshi samarali kurashish faqat nazorat va jazo choralaridan iborat emas. Eng muhimi, korrupsiyaviy xavflarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sabab va sharoitlarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olishdir.

Buning uchun har birimiz o'z vazifamizni sidqidildan bajarishimiz, qonun va ichki tartib-qoidalarga rioya qilishimiz, xizmat mavqeidan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanmasligimiz va shubhali holatlarga befarq bo'lmasligimiz zarur.

Bunda rahbarlarning shaxsiy namunasi ham muhim. Rahbarning xolis va adolatli qarorlari, xodimlarga teng munosabati jamoadagi muhitga bevosita ta'sir qiladi. Shuningdek, har bir xodimning huquqiy madaniyati va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabati sog'lom mehnat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Halollik faqat nazorat bor joyda emas, nazorat bo'lmagan paytda ham to'g'ri ish tuta bilishdir.

“O'zmetkombinat” AJning kuch-qudrati faqat uning ishlab chiqarish salohiyatida emas. Kombinatning eng katta boyligi o'z ishiga sidqidildan va halol yondashadigan, korxona taqdiri va kelajagiga befarq bo'lmagan insonlardir.

Shunday ekan, korrupsiyaga qarshi kurashishni avvalo o'zimizdan boshlaylik. Manfaatlar to'qnashuvini yashirmaylik, shaxsiy manfaatni korxona manfaatidan ustun qo'ymaylik, har bir qarorda xolislik va adolatni mezon qilaylik!

Zero, halollik va shaffoflik nafaqat qonun talabi, balki kombinatimizning obro'si, jamoamizning ishonchi va barqaror kelajagimizning mustahkam poydevoridir.

**Baxtiyor NORMATOV,**

**“O'zmetkombinat” AJning Xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasi direktori.**

SEMINAR-  
TRENINGLAR  
O'TKAZILMOQDA

“O'zmetkombinat” AJda yangi ishga qabul qilingan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq qoidalari rioya etish bo'yicha maxsus seminar-treninglar o'tkazilmoqda.

Zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida nafaqat yuqori mehnat ko'rsatkichlariga erishish, balki korxonada yuksak axloqiy muhitni saqlash ham muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda, kombinatning Komplayens xizmati tomonidan yangi ishga qabul qilingan ishchi-xodimlar uchun tizimli ravishda o'quv mashg'ulotlari tashkil etilmoqda.

Mazkur maxsus seminarlar kombinatning “Odob-axloq qoidalari”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati” hamda “Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizomi” talablari asosida olib borilmoqda. O'quv jarayonlari ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etilmoqda.

Komplayens xizmati mutaxassislari tomonidan o'tilayotgan ushbu mashg'ulotlar yangi ish boshlagan metallurglarning korxona ichki tartib-qoidalarini chuqur anglashiga va ish faoliyatini halollik hamda shaffoflik tamoyillari asosida qurishiga xizmat qiladi.

**G'anisher NURMATOV.**

“O'zmetkombinat” AJda atrof-muhitni obodonlashtirish, yashil hududlarni kengaytirish hamda xodimlar uchun munosib sharoitlar yaratish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni kunlarda kombinat hududida O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi boshlang'ich partiya tashkiloti tashabbusi bilan “O'MK O'zLiDeP bog'i”ni barpo etish ishlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Qariyb 1,5 gektardan ortiq maydonni qamrab olgan mazkur hududni zamonaviy va ko'rkam maskanga aylantirish maqsad qilingan.

## OBODLIK VA YASHILLIK MASKANI

Bog'ni barpo etish jarayonida kombinatning bir qator bo'linmalari faol ishtirok etmoqda. Jumladan, Energetika, Qurilish-montaj bo'linmalari, Kliring xizmati, Texnika xavfsizligi va Ekologiya bo'limlari mutaxassislari tomonidan zarur ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi vaqtda hududda yer ishlarini amalga oshirish, maydonni tekislash, suv tizimlarini yo'lga qo'yish, mavjud daraxtlarni butash va parvarishlash kabi ishlar qizg'in davom etmoqda.

Mazkur xayrli tashabbus nafaqat kombinat hududini yanada obod va ko'rkam qilish, balki xodimlar uchun

dam olish va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga mo'ljallangan qulay maskan yaratishga ham xizmat qiladi.

“O'MK O'zLiDeP bog'i”ning barpo etilishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “Yashil makon” umummilliy loyihasining maqsad va vazifalariga hamohangdir. Qarovsiz qolgan yerlarni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va yangi yashil hududlar barpo etish orqali kombinatda ekologik muhitni yanada yaxshilashga e'tibor qaratilmoqda.

**Davlat XOLMURODOV,**

**kombinatning boshlang'ich partiya tashkiloti raisi.**



## IBRAT OLGANGA IBRATDIR DUNYO

## SHARTNOMA EMAS, ISHONCH MUHIM

Kombinatda bir lavozim uchun uch xodim raqobatlashayotgan edi. Rahbar nomzodlarning uchalasiga ham bir xil imkoniyat berdi. Ularga muhim mijoz bilan shartnoma tuzish vazifasini topshirdi.

Birinchi bo'lib Jasur ishga kirishdi.

U aqlli, tez fikrlaydigan xodim edi. Mijozning nimani xohlayotganini bir necha daqiqada tushundi, savollarga aniq javob berdi. Shartnomani o'z kombinati manfaatiga moslab tuzdi.

Kamol esa mijozning rahbari bilan alohida suhbatlashdi. Kompaniyadagi ichki muammolarni bilib oldi. Keyin esa ana shu ma'lumotlardan foydalanib shartnoma imzolashga kelishib oldi.

– Aqlni odam o'z foydasiga ishlatish kerak, – dedi u. – Ba'zan boshqalarning zaif joyini bilish kerak.

Uchinchi xodim Ilhom esa shartnomani qo'liga oldi-yu, imzo qo'yishga shoshmadi.

Rahbar hayron bo'ldi:

– Nega imzolamayapsan?

Ilhom bir muddat jim turdi.



– Bu shartnoma kombinatimizga katta foyda keltiradi. Ammo hamkorlarimiz uchun ayrim shartlar juda og'ir. Bugun ular imzo qo'yishi mumkin. Lekin bir yildan keyin o'zlarini aldangandek his qilishlari ehtimol.

Rahbar sinov yakunlariga ko'ra bo'sh turgan lavozimga Ilhomni tayinlashga qaror qildi.

Chunki rahbar bir haqiqatni yaxshi bilardi:

Mijozni yo'qotib, boshqasini topish mumkin. Ammo ishonchni yo'qotsangiz, uni qayta tiklash uchun ba'zan bir umr ham kamlik qiladi. Shu bois shartnomaning haqiqiy qadri qancha foyda keltirgani bilan emas, hamkorlarning ishonchini qozonish bilan o'lchanadi.

Zero, manfaat insonga bugungi g'alabani keltirishi mumkin, ammo o'zaro ishonch va halollik bo'lmasa, ertaga g'alaba deb bilganingiz mag'lubiyatga aylanishi hech gap emas.

Ismadiyor MAMATQULOV.

## HIKMATLAR XAZINASI

\* Inson umr bo'yi nafsining xurujlarini bardosh bilan yengish orqali ulug' sinovdan o'tadi. Unutmaylik, nafs xuruji ko'pincha "yoqimli" bo'ladi.

\* Jamiyatni parokanda qiluvchi har qanday illat ilohiy me'yorlarni mensimaslik natijasidir.

\* Oldi olinmasa, kibr, manmanlik, ta'ma kabi illatlar yuqumli kasallikday tez va keng tarqaladi.

\* Hammada xudbinlik bor, biroq uni yengish darajasi har kimda har xil.

\* Xatolaridan xulosa chiqarmaganing boshi balodan chiqmaydi.

## QIZIQARLI MA'LUMOTLAR



Yerdagi eng uzoq yo'l Panamerik shossesidir. Uning uzunligi 48 ming kilometr.

Afrikada baobab daraxtlari 5 ming yilgacha yashay oladi.

Ko'plab urug'lar o'n yillab, hatto yuz yillab unmasdan saqlanishi mumkin.

Yerdagi eng chuqur nuqta – Marian chuqurligi – 11 034 metr.

Pingvinlar tuzli suvni ichishga moslashgan.

Metall kombinatidan Baxtli yo'l topib oldim. Ma'danlarning ichidan Oltin gul topib oldim.

Gulga ota-onasi Temirdan yo'l tilagan. Hazrat Dovud payg'ambar Peshonasini silagan.

Shu yo'l asil yo'l ekan, Bosgan izi gul ekan. Temirlarni eritgan Guldek nozik qo'l ekan.

Bildik gulning zotini, Dilnoza der otini. Prezident topshirdi Davlat mukofotini.

Davlatimiz iqtisodini Ko'taradi og'ir sanoat. Bekobodda Metallurgiya Kombinatda ajib sinoat.

Bir nozik gul cho'yan qozonda Eritilgan temir quyadi. Vo ajabo, zil-zambil temir Qandoq qilib gulni sevadi?!

Metallurgiya kombinatida

## HANDALAR

– Xo'sh, ofitsiant, mana bu sho'r-vamda suzib yurgan pashshaga nima deysiz?



## METALL VA GUL

Rustam MUSURMON,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi,  
Qoraqalpog'iston xalq shoiri.

Tadbirkor ish yuritadi gul.  
Mehr bilan, nazokat bilan  
Temirlarni eritadi gul.

Shu gul ko'kka, oy qulog'iga  
Taqib qo'yar qo'sh sirg'asini.  
Quyar osmono'par uylarning  
Temir-beton qovurg'asini.

Armatura, rels, shveller...  
Qurilishning barchasi temir.  
Shu gul temir zuvalasini  
Pishitadi bamisli xamir.

Quyar yangi O'zbekistonning  
Temir karkas minoralarin.  
Bunyod etar yangi shaharlar,  
Renessans imoratlarin.

Mashina ham, jadal ham  
metall,  
Afsona ham, matal ham  
metall.  
Mehnatingni elu yurt siylab,

– Nimayam derdim, bari-bir  
gapimga tushunmaydi.

\*\*\*

Ikki og'ayni bir-biriga:  
– Kecha nimaga xotiningga  
baqirding, og'ayni?

Taqgan oltin medal ham  
metall.

Uyg'un bo'ldi metall bilan gul,  
Gul baxsh etdi metallga  
ko'ngil.  
Metalldan gul yaralar bugun,  
Gul bo'lmasa, metall bo'lar kul.

Xudoyim fayz baxsh etdi elga,  
Ezgu niyat keladi tilga.  
Metallga aylanur bugun gul,  
Metall bugun aylanur gulga.

Temirdek mustahkam sadoqat  
Yuragida, ongu aqlida.  
El-yurtiga muhabbatini  
Izhor etar yurak shaklida.

Vatan deya she'rlar o'qiydi,  
Temir erir, yonadi oftob.  
Shoirlardan tuhfa keltirdik,  
O'ttiz besh gul, o'ttiz besh  
kitob.

– U men bergan pulni nimaga  
sarflaganini aytgisi kelmadi.

– Bugun kechagidan qattiqroq  
baqirding-ku?!

– Pulni nimaga sarflaganini  
aytdi-da!



MUASSIS:  
O'zbekiston metallurgiya  
kombinati aksiyadorlik jamiyati.

[www.uzbeksteel.uz](http://www.uzbeksteel.uz)

Muharrir  
Ismadiyor MAMATQULOV.

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar  
"O'zmetkombinat"  
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya  
apparati joylashgan.  
Tel: 10-19

Gazeta elektron shaklda  
oyda ikki marta  
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida terilib,  
sahifalandi.  
Bichimi A-3.  
ISSN 2181-645X

Sahifalovchi:  
Nigora AXMEDOVA.

Toshkent viloyati Axborot va  
ommaviy kommunikatsiyalar  
boshqarmasi tomonidan 2015-  
yil 6-mayda 03-006 raqam bilan  
ro'yxatga olingan.